MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH VA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH UCHUN OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Doniyev Shahob O‘tkir o‘g‘li
Qarshi Davlat Universiteti, Iqtisodiyot fakulteti,
Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: shahobdoniyev@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8616-8144

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20495906

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash va investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan islohotlarning mazmuni, asosiy yo‘nalishlari hamda ularning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilamiz. Olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida investitsiya muhitining asosiy ko‘rsatkichlariga baho berib, xorijiy va mahalliy investitsiyalar oqimini rag‘batlantirish omillari aniqlanadi. Shu bilan bir qatorda, investitsion jozibadorlikni oshirishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqamiz. Erishilgan natijalar esa mamlakatimiz iqtisodiyotida investitsion faollikni kuchaytirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, xorijiy investitsiyalar, investitsiya siyosati, iqtisodiy islohotlar, davlat -xususiy sheriklik, kapital oqimi.

Abstract. This article analyzes the essence, main directions, and economic efficiency of the reforms aimed at improving the investment climate and increasing investment attractiveness in our country. In the course of our research, the key indicators of the investment environment are assessed, and the factors stimulating the inflow of foreign and domestic investments are identified. At the same time, existing challenges in enhancing investment attractiveness are examined, and scientifically grounded proposals and recommendations for their elimination are developed. The obtained results are of significant importance in strengthening investment activity and ensuring sustainable economic growth in the national economy.

Keywords. Investment climate, investment attractiveness, foreign investments, investment policy, economic reforms, public-private partnership, capital flow.

Аннотация. В данной статье анализируются сущность, основные направления и экономическая эффективность реформ, направленных на улучшение инвестиционного климата и повышение инвестиционной привлекательности в нашей стране. В ходе проведённого исследования даётся оценка ключевым показателям инвестиционной среды, а также выявляются факторы, стимулирующие приток иностранных и внутренних инвестиций. Наряду с этим рассматриваются существующие проблемы в повышении инвестиционной привлекательности и разрабатываются научно обоснованные предложения и рекомендации по их устранению. Полученные результаты имеют важное значение для активизации инвестиционной деятельности и обеспечения устойчивого экономического роста в национальной экономике.

Ключевые слова. Инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, иностранные инвестиции, инвестиционная политика, экономические реформы, государственно-частное партнёрство, поток капитала.

Kirish. Hozirda jadal sur’atlarda davom etayotgan globallashuv davrida investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, bizning mamlakatinizga o‘xshab, o‘tish davrida bo‘lgan hamda asta-sekin barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishayotgan davlatlar uchun investitsiyalar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, investitsion faollik darajasi mamlakat

iqtisodiyotining raqobatbardoshligini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Rivojlanayotgan davlatlarda investitsion muhitning qulayligi ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, infratuzilmani rivojlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim o‘rin tutadi. Shu boisdan, investitsion jozibadorlikni oshirish va investitsiya muhitini yanada yaxshilash masalalariga davlatlar iqtisodiy siyosatining yana bir ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaramoqdalar.

Xuddi shu maqsadda, mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda investitsiya faoliyatini rivojlantirish, xorijiy va mahalliy investorlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish hamda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kapital jalb qilish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, investitsiya qonunchiligining takomillashtirilishi, soliq va bojxona tizimining liberallashtirilishi, tadbirkorlik faoliyatining qo‘llab-quvvatlanishiga qaratilgan institutsional o‘zgarishlar, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining joriy etilishi investitsion muhitni yaxshilashda eng muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Quyidagi jadvalimizda keltirilgan ma’lumotlar asosida ham ko‘rishimiz mumkinki, investitsiyalarning mamlakatimiz iqtisodiyotida qay darajada o‘rin egallashiga guvoh bo‘lamiz.

1-jadval[1]

O‘zbekistonda investitsiya muhitining asosiy ko‘rsatkichlari (2021-2025)

Asosiy ko‘rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Asosiy kapitalga investitsiyalar (trln so‘m)	239 552,6	266 240,0	357 071,4	507 490,2	591 437,1
Investitsiyalarning YaIMdagi ulushi (%)	32,2	30,4	30,2	35,1	40,7
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (mlrd $)	7,6	9,8	7,7	11,9	18,2
TTXI ning YaIMdagi ulushi (%)	8,1	9,3	7,2	10,3	15,68
Investitsiyalarning o‘sish sur’ati (%)	105,2	109,3	110,0	114,0	110,5

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda investitsiya muhiti so‘nggi yillarda barqaror yaxshilanib bormoqda. Xususan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2021 yildagi 236,6 trln so‘mdan 2025 yilda 591,1 trln so‘mga yetib, qariyb 2,5 barobar oshgan. Shu bilan birga, investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 40 foizdan yuqori darajaga chiqib, iqtisodiyotning investitsiyaga yo‘naltirilganligini ko‘rsatmoqda. Shunga qaramasdan, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va kapital oqimini barqaror oshirish yo‘lida ba’zi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, hududlar kesimida investitsiya infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda investitsion risklarning mavjudligi investitsiya faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur maqolamizning maqsadi ham mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan islohotlarni tahlil qilish, ularni iqtisodiyotga joriy qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarga ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda investitsiyalar hamda iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ammo hech bir islohot o‘z-o‘zidan amalga oshmaganligi kabi, investitsiyalarni jalb qilish yoki qulay hamda jozibador investitsion muhitni yaratishni ham hech bir huquqiy asoslarsiz tasavvur qilish qiyin albatta. Xuddi shunday, mamlakatimizda ham ichki investorlar bilan bir qatorda chet ellik investorlar uchun ham qulay bo‘lgan investitsion muhitni yaratish maqsadida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni maqsadda, hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonlaridan 19-sentabr 2025-yil sanasida **“O‘zbekiston**

[1] O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra muallif ishlanmasi. Manba: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments

Respublikasi milliy investitsiya jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PQ-289-sonli Qaror**[2]larining qabul qilinishi ham soha rivoji uchun eng muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Ushbu qaror ijrosi asosida ko‘plab vazifalar belgilab olindi hamda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xuddi shu mazmundagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinig 2025-yil 18-dekabrdagi **“Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi **PF-254-sonli Farmon**[3]larining imzolanishi ham faol investitsion muhitni yaratishda eng muhim huquqiy asoslardan biri bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqiqot metodlari. Biz yoritayotgan mavzuimizni tadqiq qilish jarayonida tizimli yondashuv, tadqiqotning mantiqiy va taqqoslash usullari, kompleks yondashuv, induksion va deduksion usullar, SWOT tahlili, ko‘p variantli prognoz, kuzatishlar hamda statistik tahlil, sifat hamda miqdor tahlili va shu kabi ko‘plab tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

O‘tkazilgan tahlillar va erishilgan natijalar. Mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va investitsion jozibadorlikni oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni tahlil qilish jarayonida biz normativ-huquqiy baza, investitsion siyosat, xorijiy investitsiyalar oqimi, hududlarning investitsion salohiyati hamda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarining samaradorligini o‘rganib chiqdik. O‘tkazilgan tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda investitsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlar investitsiya muhitining sezilarli darajada yaxshilanishiga xizmat qilib kelmoqda. Xususan, mahalliy investorlar bilan bir qatorda xorijiy investorlar uchun ham yaratilgan huquqiy kafolatlar, valyuta bozorining erkinlashtirilishi, soliq yukining kamaytirilishi hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay bo‘lgan shart-sharoitlarning yaratilishi xorijiy va mahalliy investitsiyalar hajmining sezilarli darajada oshishiga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan. Tahlillarimiz natijasida ma’lum bo‘lishicha, iqtisodiyotning sanoat, energetika, qurilish, transport-logistika va axborot texnologiyalari kabi ustuvor tarmoqlariga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi yil sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining kengaytirilishi va ularda investorlar uchun bojxona hamda soliq imtiyozlarining joriy etilishi investitsion faollikni rag‘batlantiruvchi muhim omillardan biri bo‘ldi.

Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlantirilishi infratuzilma, energetika va ijtimoiy sohalarda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkonini berdi. Bu esa davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirish bilan birgalikda, xususiy kapital ishtirokini kengaytirishga ham zamin yaratmoqda. Tadqiqotlarimiz davomida davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan loyihalarning iqtisodiy samaradorligi yuqori ekanligi va ular hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirayotganiga ham guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Bundan tashqari, investitsiya muhitini yanda kengaytirish hamda investitsion jozibadorlikni oshrish borasida bir qator ustuvor yo‘nalishlar ham mavjud hisoblanadi, Jumladan, ayrim hududlarda infratuzilmani yanada rivojlantirish, malakali kadrlar sonini keng ko‘lamda oshirish hamda ayrim ma’muriy tartib-taomillarning soddalashtirilishi investitsion jozibadorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu tufayli biz quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish orqali yanada yaxshiroq natijalarga erishishni maqsad qilib qo‘yganmiz:

[2] https://lex.uz/uz/docs/-7736676 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2025 yil sanasidagi PQ-289-sonli Qarori
[3] https://lex.uz/uz/docs/-7932083 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2025 yil sanasidagi PF-254-sonli Farmoni



1-rasm. Investitsion muhitni yaxshilashning ustuvor yo‘nalishlari[4]

Umuman olganda, yuqorida kreltirilgan islohotlarni amalga oshirish orqali mamlakatimiz investitsion muhitining xalqaro standartlarga mos ravishda shakllanishimiz mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, investitsiya siyosatini izchil davom ettirish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish hamda hududiy investitsion salohiyatdan samarali foydalanish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish mumkin. Shu bilan birgalikda, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot elementlarining joriy qilinishi va davlat xizmatlarining elektron shaklga o‘tkazilishi investitsiya jarayonlarining shaffofligini oshirishni yanada qo‘llab-quvvatlaydi.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash va investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan islohotlar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda xorijiy kapitalni jalb etishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash va investitsion jozibadorlikni oshirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Investitsiya siyosatini izchil davom ettirish, qulay biznes muhitini shakllantirish hamda investorlar manfaatlarini himoya qilish orqali milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2025 yil sanasidagi PF-254-sonli Farmoni. Manba: https://lex.uz/uz/docs/-7932083
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.09.2025 yil sanasidagi PQ-289-sonli Qarori. Manba: https://lex.uz/uz/docs/-7736676
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. Manba: https://lex.uz/uz/
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Stattistika Qo‘mitasi ma’lumotlari. Manba: https://stat.uz/uz/
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi investitsitya ma’lumotlari. Manba: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments
6. Aqilov A., Rahimov N. *Xorijiy investitsiyalar va milliy iqtisodiyot rivoji.* - Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.
7. OECD. International Direct Investment Statistics. - Paris, 2022.

[4] Muallif ishlanmasi